

## SSSRdagi mamuriy-buyruqbozlik boshqaruvining O'zbekiston SSRga ta'siri (1920-1990 yillar)

GulDU Tarix kafedrası dotsenti G.Abdulxay  
2-bosqich talabasi Sh.Samariddinova

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada SSSRda mamuriy-hududiy buyruqbozlik boshqaruv tizimining O'zbekiston SSRda qanday amalga oshirilganligi tahlil qilinadi. Ushbu jarayon turli davrlarga bo'lib o'rganilgan. 1920-yillardan boshlab to 1990-yillargacha bo'lgan davrlar tadqiq etiladi. Shuningdek, maqolada O'zbekiston SSRda boshqaruv shaklining ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy tizimga ta'sirini ko'rsatib berilgan.

**Kalit so'zlar:** SSSR, O'zbekiston SSR, ma'muriy-buyruqbozlik, avtoritar, totalitar, YAIS, Oliy Sovet Prezdumi, Kommunistik partiya, “paxta ishi”, “qayta qurish”.

SSSRdagi o'tgan asrning 70-yillik ma'muriy-buyruqbozlik rejim ostidagi boshqaruvi, uning mustamlakalardan biri bo'lgan O'zbekistondagi madaniy, iqtisodiy va siyosiy hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. Bu tizimning mohiyati, davlat tomonidan boshqa sohalarga qattiq nazorat o'rnatish va majburiy tartib-intizomga amal qilishdan iborat edi. Bu davr O'zbekiston SSRda sovet hokimiyatining mustahkamlanishi bilan birga, avtoritar boshqaruvining asoslari shakllangan. 1920-yillarda hali to'liq totalitar boshqaruv tizimi o'rnatilmagan. Bu jarayonni biz o'lkadagi turli sohalarda hali ba'zi masalalarda biroz erkinliklar mavjud bo'lganligini ko'rish mumkin [1].

1925 yillardan keyin, Iosif Stalin rahbarligi ostidagi boshqaruv partiyaning g'oyaviy yuksalishi va marksizm-leninizm mafkurasi asos qilib olingan. Komunistik partiyaning asosiy g'oyalari va vazifalari – kommunizm qurish, proletariat diktaturasi, xususiy mulkchilikni tugatish, internatsionalizm, bozor iqtisodiyotidan voz kechish hamda sinfsiz jamiyat barpo etishni o'z ichiga olgan edi. Ushbu g'oyalar asosida komunistik boshqaruv vujudga kelgan. Ko'p hollarda mahalliy sharoit hisobga olinmagan. Buyruqlarga bo'ysunmaganlar jumladan, diniy ulomalar, milliy jadidlar, “bosmachilar” qattiq taqib qilingan va ayovsiz jazolangan.

1927-yildan boshlab, Iosif Stalin hokimyatni to'liq qo'lga oldi. Uning boshqaruv davri O'zbekiston SSR hokimyatiga ham katta ta'sir qildi. “Milliy davlat tashkil qilish” niqobi ostidagi siyosat negizida O'zbekiston SSR Markaziy Ijro Qo'mitasi tuzilib, uning raisi Yo'ldosh Oxunboboyev tayinlangan.[2] Bu ibora aholi orasida kommunistik go'yalarni targ'ib qilish uchun qo'llanilgan.

Aynan shu davrda butun SSSR, hamda O'zbekiston SSR hududida ham YAIS siyosati davom etayotgan edi. Lekin, iqtisodiy siyosat 1928-yilda Komunistik Partiya rahbari Iosif Stalin tomonidan tugatirilib, uning o'rniga ma'muriy kollektivlashtirish va sanoatlashtirish siyosati boshlab yuborildi. Aslida bu siyosatni amalga oshirishdan maqsad, Sovet Ittifoqini tezkor ravishda industrial davlatga aylantirish va qishloq xo'jaligini davlat nazoratiga olish edi. Buning natijasida O'zbekiston SSR qishloq xo'jaligi va iqtisodiyoti og'ir ahvolga kelib qoldi. Shu bois vaqtinchalik davom etgan YAIS O'zbekiston SSR hududida rasman 1933-yilda tugatiladi.[3]

30-yillardan I.Stalin o'z diktaturasini mustahkamlash maqsadida o'ziga bo'ysunmagan ziyoli va aholining turli qatlam vakillarini yo'q qila boshlagan. Bu jarayon O'zbekiston SSRda ham partiya yetakchilari, milliy ziyolilar, din vakillari qatag'on qilingan. O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezdimi raisi lavozimida faoliyat yuritgan Yo'ldosh Oxunboboyev bu aynchli vaziyat ishtirokchisiga aylanib qolgan va markazdan kelgan buyruqlarni so'zsiz bajargan. Ammo qatag'on davomida Yo'ldosh Oxunboboyevning o'zi ham omon qolmagan. Ziyolilar “burjua millatchilari”, “xalq dushmanlari” kabi nomlar bilan qatag'on qilingan. Millatimiz oydinlardan Abdulhomid Cho'lpon, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Usmon Nosir va boshqalar; O'zbekiston SSR rahbarlaridan Fayzulla Xo'jayev, Akmal Ikromov, Ishoqxon To'ra Ibratlarni aytib o'tish kerak. Iosif Stalin siyosati katta talofatlarga olib kelib, bu SSSR tarixidagi avtoritarizm davri bo'lgan. [4]

Keyingi davrlar ham I.Stalin boshqaruvida bo'lib, mustabid tuzumning eng avj olgan davri hisoblanadi. Xususan, 1940-yillarda qattiq markazlashgan boshqaruv, qishloq xo'jaligi va sanoat bo'yicha rejalar, siyosiy qatag'onlar davom etayotgan eng o'g'ir davrga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, butun dunyo bo'ylab ko'p insonlarning umriga zavol bo'lgan Ikkinchi jahon urishi boshlangan edi. Asosiy urish ishtirokchilaridan biri bo'lgan SSSR davlati askarlari uchun frontga katta miqdorda oziq-ovqat, kiyim-kechaklar va turli xom-ashyolar yetkazilishi kun tartibidagi masalaga aylandi. Bu mas'uliyatni O'zbekistonSSR xalqi bo'yniga qo'yildi. Urush tufayli SSSR hududidagi katta-



katta sanoat korxonalari O'zbekiston SSRga evakuatsiya qilindi [5]. Sanoatda transformatsiya jarayoni yuz berdi.

1953-yilda Iosif Stalin vafot etadi. Hokimiyat tepasiga Nikita Sergeyevich Xrushchov yangi rahbar etib tayinlandi. Nikita Xrushchov davrida ham totalitar rejim davom etdi. Biroq, uning boshqaruvi davomida ba'zi ayblangan harbiylarning ayblari oqlanganini ko'rish mumkin. Bu yillarda askarlarning oila a'zolari markazga arizalar topshirib, tergov ishlari qayta ko'rib chiqilishini so'raydilar. Ko'pchilikning arizalari qaytadan ko'rib chiqiladi. Shu sababli Nikita Xrushchov davri “iliqlik davri” degan nomni olgan.

O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezdimi raislari Usmon Yusupov (1937-1950 yillarda), Aminjon Niyozov (1950-1955 yillarda), Nuriddin Muxiddinov (1955-1957 yillarda), Sobir Kamalov (1957-1959 yillarda) va Sharof Rashidov (1959-2983 yillarda) faoliyat ko'rsatgan. Bu rahbarlarning har birining boshqaruvi deyarli bir-birini takrorlamagan edi [6]. Masalan Usmon Yusupov ayniqsa Ikkinchi jahon urushidan keyin markazdan kelgan buyruqlarga asoslangan holda paxta hosildorligini yanada oshirib borishga harakat qilgan. Yani. O'zbekiston SSR paxta monopoliyasi shakllanishi bilan bog'liqdir. Amin Niyozov asosan konservativ siyosat yuritish tarafdori bo'lgan. U qishloq xo'jaligidami yoki sanoat sohasiga deyarli yangilik kiritmagan va markazdan kelgan qarorlarga bo'ysunish bilan cheklangan.

Nuriddin Muxiddinov boshqaruvida markazdagi rahbarlar bilan mahalliy rahbarlar o'rtasida ziddiyatlar davri bo'lgan. Shu sabaga ko'ra, u O'zbekiston SSR va markaz rahbarlari o'rtasidagi kelishmovchilikni bartaraf qilishga harakat qilgan. Muammolarga sabab esa, asosan paxta rejasi to'liq bajarilmagani edi. O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezdimi raisi Nuriddin Muhiddinov davrida mahalliy rahbarlarining mavqeini oshishi va korrupsiya avjiga chiqdi. Bunga sabab o'lka hududida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini nazorat qilish susayganligi aytib o'tish mumkin. Shuningdek shu davrda ruhlantirish siyosati davom etib, rus tili va madaniyati yanada targ'ib qilish kuchaygan.

Sobir Kamalovning qisqa boshqaruv davridagi asosiy islohati kadrlarni “mahalliyashtirish”ga yo'naltirilgan bo'lib, afsuski bu islohat bajarilmay qoladi. Chunki, bu islohatni markaz rad etadi. Shundan so'ng, ko'p o'tmay markaz Sobir Kamalovni lavozimidan bo'shatdi.

Nikita Xrushchov davriga kelib, O'zbekiston SSRda terror va to'g'ridan-



to'g'ri nazorat o'rniga mahalliy va markaziy hokimyatda muvozanatlashgan ya'ni, nazorat ostidagi muxtoriyat davri boshlandi. Yangi siyosiy model partiya va davlat ichidagi vakillik va manfaatlarni moslashtirgan eng nufuzli guruhlar o'rtasida hokimyatni uyg'unlashtirdi. Bu siyosat asta-sekin markazlashtirish boshqaruvini vujudga keltirib bir muddat saqlanib qoldi. Ayni shu vaqtda O'zbekiston SSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi Amin Niyozov bu boshqaruvni O'zbekiston SSR hududida ham keng yoyilayotgan edi. [7]

1957-yil may oyida Nikita Xrushchov “kadrlarning sodiqligini ta'minlash yuzasida” nomli ostida olib borilgan siyosiy boshqaruvi ayniqsa shu yillarning oxirida kuchaydi. Bu buyrokratik boshqaruvi ng asosida 1961- yilda butun RSFSR dagi viloyatlarning kotiblari (2/3 qismi) almashtirilgan [8]. N.Xrushchov 1964-yili kompartiya rahbarlarini uning islohatdagi noroziliklar sababli o'z lavozimidan ketishiga olib keldi.

Keyingi davrda. Leonid Ilich Brejnev SSSR rahbarlik lavozimiga keldi. Totalitar tuzumning davomida Sovet boshqaruvi yanada byurokratlashishi va iqtisodiy rivojlanish pasayishi bilan namoyon bo'ldi. Bundan tashqari butun SSSR boshqaruvida xususan uning bir qismi bo'lgan O'zSSRda ham korupsiya kuchayadi. Hamda mustaqil iqtisodiy siyosiy harakatlarga yo'l qo'ymadi. Sabab esa, yagona partiya va yagona qarorlar mavjud edi. Shuningdek o'lka hududida nomenklatura tizimi avj oldi. Davlat ahamiyatidagi rahbarlar faqat ishonchli kommunistlar orasida tayinlangan edi. Shunday rahbarlardan biri O'zSSR Oliy Sovet Prezidiumi raisi Sharof Rashidov hisoblanadi. Sharof Rashidov boshqaruvi turli sohalarda islohatlar o'tkazilgani bilan ajralib turadi. Misol uchun uning adabiyotga qiziqishi va o'z she'rlari bilan shu davr adabiyotchilari e'tirofiga sazavor bo'lganligi, hamda “Rus kunlari” nomli Moskvada faoliyat olib borayotgan uyushma qoshida ochilgan tashkilot rahbari edi.

Leonid Brejnev rahbarligi davrida ko'pincha hududiy rahbarlar uzoq muddat o'z lavozimida qolib ketishi va kadrlar almashinuvi juda sust kechgan davr edi. 1966-yilda o'tkazilgan Sovet koministik partiyasining XXIII qurultoyi davomida kadrlarni almashtirish bo'yicha qarorlar qabul qilingan. Bu siyosat ham o'zining zararli oqibatlari korupsiyaning kuchayishi bilan namoyon boldi.

Leonid Brejnev boshqaruv davrining ikkinchi yarmida ma'lum muddatga bo'lsada tartibga solingan edi. Buning oqibatida o'sha davrdagi mansabdor shaxslarning siyosiy va iqtisodiy to'qnashuviga olib kelgan. Oqibatida tabiiy

resurslar kamayishiga sabab bo'lgan. Misoli sifatida Orol dengizining qurishini ko'rishimiz mumkin. Lekin bu davr yuqori iqtisodiy o'sish va gullab-yashnash bilan boshlanib, asta-sekin ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy sohalarda jiddiy muammolar to'planib borgan. Shuning uchun ham ushbu davr ko'pincha “turg'unlik davri” deb nomlangan. O'zSSR rahbari Sharof Rashidov bu siyosiy harakatlarda faol ishtirok etgan. Biroq Rashidov markazdan kelgan qarorlarni so'zsiz bajarishga majbur edi. Shunday qarorlardan biri O'zSSRni Sovet ittifoqining asosiy paxta yetishtiruvchi hududiga almashtirish harakatlari edi. 80-yillarga kelib o'lka hududiga o'rnatilgan paxta yakkahokimligi natijasida o'lkadagi eng yirik chuchuk suv manbai bo'lgan orol dengizi qurishiga sabab bo'ldi. Bu jarayon esa qishloq xojaligiga ham salbiy ta'sirini ko'rsatdi. SSSR davlat rahbari shunday vaziyatda 1982-yil og'ir hastalik tufayli vafot etdi

1982-yilda “Butunittifoq Bosh Buyrosi”(VGB) rahbari sobiq kommunist Yuriy Andropov so'nggi avtoritar tuzimning rahbariga aylangan edi [9]. Y.Andropov rahbarligi yillari davomida O'zbekiston SSRda ma'muriy-hududiy buyruqbozlik o'zgacha ko'rinishda namoyon bo'lgan. Bu vaqtda O'zSSR rahbari sifatida Sharof Rashidov o'z faoliyatini davom ettiryotgan edi.

Aytib o'tish joizki, L.I.Brejnev olimidan so'ng “Sochi Kasnadar ishi”, “olmos ishi” kabi terror harakatlari 1983-yilda O'zSSRda “paxta ishi”, “o'zbek ishi” bilan aralashib ketdi [10].

Aslida bu jarayon “paxta ishi” deb nomlanishiga sabab O'zbekiston SSR hududi asosan paxta ekishga moslashtirilgani va paxta o'lka uchun asosiy daromad hisoblangan. Markazning me'yordan ortiq miqdorda paxta mahsulotlarini talab qilishi sabab bo'lgan. Markaz tomonidan qo'yilgan talab bajarilmagandan so'ng paxta miqdori sun'iy ravishda raqamlarda oshirilgan. Yuriy Andropov tomonidan tuzilgan “Taftish kengashi” tomonidan o'rganilgan paxta masalasi bo'yicha minglab xodimlar qamoqqa tashlangan. “Paxta ishi” ikki bosqichga bo'linib birinchi davr Yuriy Andropov boshqaruvi davrida ya'ni 1983-1984 yillarda davom etgan edi.

Y.Andropovning kompartiyaning 29-noyabrda o'tkazilgan plenuimidagi qaror O'zSSRda “yumshoq terror” nomi ostidagi qatog'onga olib keldi. O'zSSR birinchi kotibi Sharof Rashidov vafotidan so'ng uning nomi qoralanib, tuxmatlar bilan “paxta ishi” boshlanib ketdi. Sharof Rashidovdan keyin uning o'rniga kelgan Inomjon Usmonxo'jayev lavozimiga kelgan yilning o'zidayoq “paxta ishi” boshlab yuborgan. U Sharof Rashidov davridagi ko'plab xodimlarni ishdan olinishi va

hibsga olinishi jarayonida faol qatnashdi.

Markazdan kelgan bosh tergovchilardan biri Nikolay Ivanovning izoh berishicha “O‘zbekistonda millonlab odamlar pora bergan va olgan, hamda halol odamlar uchun bu esa axloqsizlik” deb ayblovlar qo‘yilgan. Birinchi bosqichda “paxta ishi” bo‘yicha “axloqiylashtirish” ayblari bilan minglab mahalliy elita vakillari qatag‘onga uchragan. Ko‘pchiligi sud ham qilinmagan bo‘lib, ularning soni 400dan ortib ketgan [11].

Yuriy Andropov tomonidan 1984-yil 18-avgustda yana bir jazo kompaniyasi tuzib, “Buxoro ishi” deb nom olgan siyosiy ish tekshirilib, ko‘plab ishtirokchilari jazolangan. Buxoro hududidagi yuqori elita vakillari tergov ostiga olinib, tergov jarayoni amalga oshgan. Tergov natijasiga ko‘ra J.Karimov, Q.Ergashov kabi rahbarlar hibsga olinib jazolangan.

1985-yil 11-martda Sovet Ittifoqi Komunistik partiyasining bosh kotibi lavozimiga Mixail Gorbachov tayinlangan. Oradan 40 kun o‘tgach o‘zining go‘yaviy prinsiplarini keng miqyosda e‘lon qilingan davr bo‘ldi. Bu siyosat ikki bosqichga bo‘linib “qayta qurish” deb nomlangan. Birinchi bosqich (1985-1987 yillar) asosan markazlashgan rejali iqtisodiyotni bozor mexanizmlariga yaqinlashtirish, xususiy tadbirkorlik va kooperativlashtirish faoliyatiga ruxsat berish bo‘ldi. Bu holatda O‘zbekiston SSRda islohatlar natijasida iqtisodiyot yanada beqarorlashdi. Shuningdek bozor tizimi to‘liq shakllanmagani sababli taminotda muammolar yuzaga keldi [12].

Masalan uy-joylarni yangilash bo‘yicha pul mablag‘lar ajratilgan, lekin to‘liq qurib tugatilmaganini aytib o‘tish lozim. Yoki uylar to‘liq ta‘mirdan chiqmagan bo‘lib, nomigagina ta‘mirlangan holatlar ko‘p uchraydi. Bundan tashqari, bozorlarda narxlar nazoratsiz, korxonalar esa o‘z holiga tashlab qo‘yilgan.

“Qayta qurish” natijasida “paxta ishi” yana bir bor ko‘rib chiqiladi. Chunki, Mixail Gorbachov “oshkoralik” g‘oyasi ostidagi mahalliy rahbarlarni to‘liq bo‘ysundirish uchun qayta boshlangan siyosiy bosqich bo‘lgan. Bu davr “paxta ishi”ning ikkinchi boshqichi hisoblanadi. 1985-yilda siyosiy tarqoqlik va inqirozlar davrida jazolash otryadi o‘z faoliyatini boshlagan. Endi ayblovlar qo‘yilganlar soni oldingidan ham ko‘payib ketganligi, aniq raqamlar bilan 800dan oshib ketgan edi. O‘zbekiston SSR da 1989-yilning o‘zida sovet hukumati “o‘zbek paxta ishi” bilan bog‘liq ayblarni to‘liq ko‘rib chiqib, noqonuniy ayblar fosh bo‘ldi. “Qayta qurish” siyosati ikkinchi bosqichi 1989-yili tugatildi. Mukammal rejalashtirilmagan “qayta


qurish” siyosati o’z natijasini bermadi. Bu holatlar Mixail Garbochov obro’siga salbiy ta’sir ko’rsatgan. Natijada, ittifoqdosh respublikalarning mustaqillikga intilishi kuchaygan. Avtonom hududlarning parchalanishi va mustqil bo’lishi esa 1991-yil o’z mustqilligini qo’lga kiritishiga sabab bo’ldi. Shu yillardayoq Mixail Garbachov iste’fo bergan va 70-yillik avtoritar boshqaruviga asoslangan Sovet Ittifoqi rasman tugatildi. Hamda O’zbekiston SSR hududida 1991-yil 31-avgustda tasdiqlangan “Mustaqillik deklaratsiyasi”ga ko’ra 1-sentabr mustaqil O’zbekiston Respublikasi deb e’lon qilingan

Xulosa qilib aytganda, 70 yillik sovet boshqaruvi O’zSSRning iqtisodiy, siyosiy, va ijtimoiy rivojlanishiga ham ijobiy ham salbiy ta’sir ko’rsatgan. Sovet tuzimining ijobiy tomondan biz sanoat va infratuzilma, qishloq xo’jaligini moderinizatsiyalash hamda shaharsozlik va ijtimoiy xizmatlarning salmoqli rivojlanishida ko’rishimiz mumkin. Biroq salbiy ta’siri buyruqbozlik tizimi tufayli iqtisodiy mustaqillikning yo’qligi, ekologik inqiroz, siyosiy erkinliklarning cheklanganligi va milliy mafaatlarning e’tiborsiz qoldirilishi, O’zbekiston SSRni murakkab sharoitga solib qo’ydi. Bu holatda SSSR hukumati zaiflashishi va buning natijasida parchalanishiga olib keldi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Абдулхай, Г. ТУРКИСТОН МАТБУОТИДА ЯНГИ ДАВЛАТ ХУСУСИДАГИ МУНОЗАРАЛАР (1918-1924 ЙИЛЛАР). INFOLIB: ИНФОРМАЦИОННО-БИБЛИОТЕЧНЫЙ ВЕСТНИК Учредители: Общество с ограниченной ответственностью с участием иностранного капитала" E-LINE PRESS",(1), 56-60.
2. Muhammadali Mamadaliyev. “O’zbekiston SSRda ijtimoiy-iqtisodiy hayot”. Samarqand, 2004.
3. Eduart Kenner. O’zbekiston SSRda sovet hokimyatining mustahkamlanishi. Rim, 1990.
4. Feruz Narmanov. O’zbekiston tarixi. Toshkent, 2009.
5. Haydaruv Muradali. “O’zbekistonda sovet davlati boshqaruv tizimining shakllanishi”. Toshkent, 2008.
6. E.Eshanov. “Fayzulla Xo’jayev tarixi”. Toshkent, 1992.
7. Asil Rashidov. 1930-1970 yillatda SSSR. Toshkent, 1985.

8. Abdulxay, G., & Abdullayev, A. (2025). O ‘ZBEKISTON SSR DA MA’MURY BUYRUQBOZLIK TIZIMI O ‘RNATILISHI VA MUSTAHKAMLANISHI. Современные подходы и новые исследования в современной науке, 4(5), 74-81.
9. R.Mirzayeva. O’zbekiston tarixi. Toshkent, 2005.
10. Dilorom Alimona. O’zbekiston SSRning rahbarlari. Toshkent, 1997.
11. Marko Buttino. SSSR tarixidagi muhim voqealar. Parij, 2012.



Research Science and  
Innovation House

